


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JIZZAX VILOYATI  
DO‘STLIK TUMANI



*Axborot-bibliografiya xizmati*



**“MILLATIMIZNING FIDOIY SHOIRI”**

**Mirzaaliyev Iqboljon Mirzakarimovich**

**(1967-yilning 1 may sanasida tavallud topgan)**

**BIBLIOGRAFIK SHARX**

**Tayyorladi M.A.Raximova**

## SO`Z BOSHI

**Mirzaaliyev Iqboljon Mirzakarimovich** —

O‘zbekiston xalq shoiri, jamoat arbobi va 2010 yildan e‘tiboran, O‘zbekiston Respublikasi senatori. Shuningdek, milliy estrada taraqqiyoti jamiyati uyushmasi raisi, “Assalom O‘zbekiston” teledasturi bosh muharriri, Yozuvchilar uyushmasi rais o‘rinbosari, mudofaa vazirligi huzuridagi jamiyat ittifoqi boshqaruvi raisi, mudofaa vazirligining harbiy maslahati a‘zosi. 1967 yilning 1 may kuni tavallud topgan, oilada olti nafar farzandning beshinchisi (to‘rt o‘g‘il va ikki qiz). Otasi o‘qituvchi bo‘lib, bolalarining ta‘limiga katta e‘tibor bergan. She‘riyatga qiziqishni tog‘asi, shoir Abdulla G‘ulom uyg‘otgan. Besh yoshida S.Yeseninning o‘zbek tiliga tarjima qilingan she‘riy to‘plamini yod oladi. She‘rlar yozishni 7 yoshdan boshlaydi va ma‘lum vaqtdan so‘ng mahalliy gazetalarda yosh shoirning she‘rlarini chop etishni boshlashadi. U o‘z she‘rlarida ozodlik, sevgi va tabiatni tasvirlagan. Iqbol Mirzo tahllusi ostida ijod qilgan. 1984 yil Farg‘ona davlat universitetiga o‘qishga kiradi va o‘qish yillari 1985-1987 yillar u Tomskda harbiy xizmatni o‘taydi. 1989 yil o‘qishni tamomlaydi. 1992 yil Toshkentga keladi va “O‘zbekiston tabiati” gazetasida jurnalist sifatida faoliyatini boshlaydi, keyinroq, “Vatan” haftaligiga muharrir etib tayinlanadi. 1993 yil uning ilk she‘riy to‘plami “Yurakning shakli”, 1994 yil “Ko‘ngil”, “Seni sog‘inaman”, 2000 yil “Meni eslaysanmi”, 2002 yil “Tanlangan she‘rlar”, 2004 yil “Qo‘shiqlarim” va “Seni bugun ko‘rmasam bo‘lmas”, 2008 yil “Sizni kuylayman” kabi to‘plamlari chop etiladi. 1996 yil O‘ztelekomi kompaniyasi direktor o‘rinbosari lavozimini egallaydi. Qilgan mehnatlari uchun 1999 yil “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan, shu yili ommabop tonggi teledastur “Assalom O‘zbekiston”ning bosh muharriri bo‘ladi.

2006 yil yozuvchilar uyushmasi rais o‘rinbosari etib tayinlangan.

2005 yil O‘zbekiston xalq shoiri bo‘lgan.

2010 yil Oliy Majlis senatori etib tayinlangan.

2012 yil Mudofaa vazirligi huzuridagi jamiyat ittifoqi boshqaruvi raisi.

2014 yildan Mudofaa vazirligi harbiy maslahati a‘zosi.

### **Iqbol Mirzo – qo‘shiqchi shoir.**

Iqbol Mirzo – qo‘shiqchi shoir. Uning she‘rlariga bastalangan qo‘shiqlar har kuni to‘y va hashamlar, turli tadbir va tantanalar, radio va televidenie orqali deyarli har soatda yangrab turadi, desak, mubolag‘a bo‘lmas. Kezi kelganda, shuni aytish kerakki, ba‘zida qo‘shiqchi



shoir iborasini “yallachi e’jodkor” ma’nosida noto’g’ri tushunib, she’rlari qo’shiqqa aylangan yaxshi shoirlarga ham “ikkinchi darajali rutba”sini munosib ko’rishadi. Holbuki, she’rlari musiqaga esh bo’lgan, xush navo va xush ovozga munosib, ruhiyatning ozig’iga aylanishga qodir mavzun kalom yarata olish – chinakam ijodkorning baxti. Bebaho milliy musiqa merosimizga nazar tashlasak, eng buyuk qo’shiqchi shoirlarimiz hazrat Navoiy, Mirzo Bobur, Boborahim Mashrab, Fuzuliy, Maxtumquli...lar ekanligiga guvoh bo’lamiz. Qo’shiq jamiyatning barcha qatlamlari – yoshu qari, olimu omi, shoiru shofir, oshiqu orif... barcha-barcha uchun nondek aziz, ma’naviy yo’ldosh, ruhiy madaddir. Inson o’z quvonchu qayg’usi, hasrat va iztiroblari, orzu va armonlari, e’tiqod va muhabbatini qo’shiqlardan izlaydi, o’z holati va kayfiyatiga munosib qo’shiq topilganda esa, bu topildi qan hosil bo’ladigan ruhiy sururni boshqa hech narsa bilan almashtirmaydi. Qo’shiqning ajoyib bir xususiyati borki, u yolg’izlikda yoki ikki-uch kishi orasida tug’ilib, millionlarning tuyg’usini birlashtiradi. Adabiyot yoki musiqaning boshqa janrlari kitobxonga yoki tinglovchiga yetib borguncha, qo’shiq butun mamlakatni aylanib chiqqan bo’ladi. Shu uchun bo’lsa kerak, inson eng muqaddas tuyg’usini qo’shiqqa solgisi keladi. Shu uchun bo’lsa kerak, inson alla ohangida ulg’ayadi, visol va hijronini yor-yorlaru o’lanlar orqali izhor etadi, boqiy dunyoga ketganda ham marsiyalar bilan kuzatiladi... Iqbol Mirzoning qo’shiqqa aylangan she’rlarining salmoqli qismida nafis insoniy tuyg’ular yangroq fuqarolik ruhi bilan ajoyib tarzda omuxtalashgan. Ayniqsa, shoirga shuhrat keltirgan, mustaqil Vatanimiz haqida yaratilgan eng ajoyib qo’shiqlardan biri sifatida e’tirof etilgan “Aytgil, do’stim, nima qildik Vatan uchun” she’rining dastlabki satrlaridayoq Vatan va vatandoshlarga bo’lgan muhabbat va samimiyat jasorat va iftixor bilan birgalashib, o’quvchi qalbida ham pokiza tuyg’ularni junbushga keltiradi, yangi marralarni fath etishga yo’naltiradi:

Boshing egib, ta’zim ayla, shukrona ayt,

Seni guldek erkalagan chaman uchun.

Osmonlarda yurgan bo’lsang, tuproqqa qayt,

Aytgil, do’stim, nima qildik Vatan uchun?!

Iqbol Mirzo Vatan haqida she’r yozganida fayzli bog’-rog’lar, shonli o’tmish, purviqor binolar, buyuk ajdodlar...ni qatorlashtirib, she’r tizishdan saqlanadigan shoirlardan. Uning uchun saraton payti boshiga oq durra tang’ib, ketmoni bilan qaqroq cho’lni chamanga aylantirgan dehqonlar, qish chillasidagi izg’irinlarga parvo qilmasdan, el chorvasini boqib yurgan cho’pon-cho’liqlar, duogo’y onalar kabi qo’llari osmonga qadar ko’tarilgan kuzak paytidagi sarvu sanavbarlar, yozning chillasida begona ko’zdan hayo qilib ko’ylak bilan

cho‘miladigan qishloqi qizlar, sevgisini arzon so‘zlarga alishtirmaydigan, bir umr muhabbatini yuraging tub-tubida yashirishni nomus mezoni deb bilgan mard yigitlar – Vatanning timsoli. Iqbol Mirzo sevgan va kuylagan, siz u bizning Vatanimizning timsoli. Sodda, mard, chapani, andishali, bag‘rikeng xalq haqida ana shunday sodda, samimiy, ohanjamalikdan xoli so‘zlar bilan she‘r bitish yarashiqli:

O‘zbekiston, onajonim, yolg‘izim,

Bobolarim kaftidagi yulduzim,

Jannatlardan suvlar ichgan ildizim,

Jannat makonim mening, O‘zbekiston,

Jon ichra jonim mening, O‘zbekiston!

She‘rga ta‘rif berilarkan, unga uchta narsani asos qilib ko‘rsatishadi: ohang, qofiya va taxayyul. Iqbol Mirzoning she‘rlarida ushbu uchta asosga qo‘shimcha tarzda ishq va muhabbat to‘rtinchi javharyi unsur sifatida qatnashgan. Shoir qaysi mavzuda qalam tebratmasin, ko‘nglidagi muhabbat kimyosi so‘ziga taft berib turadi, unga sirli joziba baxsh etadi. Iqbolning sevgi bobida yozgan she‘rlari kitobiy (muhabbat mavzusidagi asarlarning o‘qishidan yasalgan she‘rlar), xitobiy (soxta oh-vohlardan iborat uydirmalar), xayoliy (o‘zi yashamagan, ko‘nglida kechmagan ishq ilohiy vasfidagi urinishlar), havoyi (erkak yo ayol yozganini farqlab bo‘lmaydigan diydoyolar) “sevginoma”lardan keskin farq qiladi. Iqbol Mirzo o‘zi yashagan, o‘spirinlik davridagi ilk tuyg‘ular, askarlikka ketgani sabab erta uzatilgan qallig‘idan hijronda qolishlar, paxta terimi paytida zarurat tufayli vujudga kelgan yaqinlik sharofati bilan tug‘ilgan kechmishlar, g‘urur va andisha sabab tilga ko‘chmasdan, ko‘ngillarda ko‘milgan sevgi haqida yozadi. Uning talqinidagi ishq ahli junun vodiysiga muhtalo, husn sharobidan sarmast, tuproqdek beozor, maysadan-da xokisor, suvdek sokin, sharobdek jo‘shqin, bag‘ri yarim zotlar. Mavlono Jaloliddin Rumiy aytganlaridek, oshiqlar yo‘li millat va mazhabni pisand etmas:

Oshiq ahli yo telba, yo mast kelgan,

Suvdan sokin, maysadan ham past kelgan,

Men bilganlar bari dilshikast kelgan,

Ko‘ngil so‘rab ko‘rmaganman sog‘lardan.

Iqbol Mirzo she'riyati – hayotiy, erksevar, samimiy she'riyat. Bu she'rlarni o'qiganingizda beixtiyor rizo va shukronalik, qanoat va matonat, sobirlik va sobitlik haqida o'ylay boshlaysiz, qalbingiz ravshanlashadi.

### **Tavsiyaviy ro'yxatlar:**

#### **1. Iqbol Mirzo**

Ko'zlaringga termulsaydim. Iqbol Mirzo she'rlar/ 1-jild – T.; “Sharq”, 2020. – 256 b.

O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzoning ushbu birinchi jild to'plamiga 2001 yilgacha bo'lgan ijod namunalari jamlandi.

Shoirning o'smirlik yillarida qog'ozga ko'chgan sodda, samimiy tuyg'ulari aks etgan mashqlari kitobxonlarga havola etilyapti.

#### **2. Iqbol Mirzo**

Ko'nglingda nima bor, bilmayman. Iqbol Mirzo she'rlar/ 2-jild – T.; “Sharq”, 2020. – 256 b.

O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo asarlarining ikkinchi jildiga qariyb yigirma yillik ijod namunalari kiritildi.

Shoirning yangi she'rlari birinchi marotaba chop etilyapti.

#### **3. Iqbol Mirzo**

Bonu. Iqbol Mirzo /Roman va hikoyalar/ 3-jild – T.: “Sharq”, 2020. – 440 b.

Shoirning ushbu uchinchi jild to'plamiga nasriy asarlari – keng jamoatchilik tomonidan adabiy voqea sifatida kutib olingan “Bonu” romani va hikoyalari jamlandi.

### **Ko'zlaringga termulsaydim she'ridan:**

Daralarga qamab qo'yib bo'ronlarni,

Tinchlantirsam yurakdagi suronlarni.

Bir erkalab, bo'yin to'ksam rayhonlarning,

Huzuringga men o'zimni keltursaydim,

Ko'zlaringga termulsaydim, termulsaydim.

Umr tushdek izsiz, shitob o'tayotir,

Umidimni yanchib, mutab o'tayotir.

Oy iqida shoshqin oftob o'tayotir,

Shul hajrni men vaslga yetkursaydim,

Ko'zlaringga termulsaydim, termulsaydim.

Ehromlar ham bir kun turob bo'lar ekan,



Koinot ham to‘zg‘ib, xarob bo‘lar ekan.

Faqat sevgi mangu va sof bo‘lar ekan,

Bilganimni endi senga bildirsaydim,

Ko‘zlaringga termulsaydim, termulsaydim.

Ko‘z yoshlarim, shoshilmangiz, ketmang toshib,

Qon yurakka malham bo‘lar sho‘r ko‘z yoshi.

Quvonchlardan kechib, qayg‘ulardan qochib,

She‘rlar aytib, yig‘latsaydim, kuldirsaydim,

Ko‘zlaringga termulsaydim, termulsaydim.

Aytgil, hamon bormi shirin arazlaring?

Salomatmi orzularing, havaslaring.

Qulog‘imdan ketgani yo‘q nafaslaring...

Seni yana bir ko‘rishga ulgursaydim,

Ko‘zlaringga termulsaydim, termulsaydim.

**1997 yil.**

**Ko‘nglingda nima bor – bilmayman.**

Taqdirga tan kerak-ku, ammo,

Gohida o‘zimga sig‘mayman.

Ko‘nglimda bir tugun muammo

Ko‘nglingda nima bor – bilmayman.

Bilaman kipriging har birin,

Chizaman ko‘zlaring tasvirin.

Vujuding qo‘ynimda, asirim,

Ko‘nglingda nima bor – bilmayman.

Bilaman qaysi rang yoqishin,  
Nigohing aytadi xohishing.  
Uyqumda taniyman tovushing,  
Ko'nglingda nima bor – bilmayman.  
Bilaman, labingda bo'ling bor,  
Zulfingda necha tor to'lang bor.  
Bilaman, qayerda holing bor,  
Ko'nglingda nima bor – bilmayman.  
Dildorim deyinmi, dilbarim,  
Behuda yurakni tilganim.  
Bir puldir dunyoni bilganim  
Ko'nglingda nima bor – bilmayman.

1999

### **Bonu asari haqida:**

Asarda Buxorolik yosh qiz Bonuning hayoti yoritilgan. Mir Arab madrasasi tuprog'ini , 10 yil



yalab ilmi komil bo'lgan mo'min boboning o'gitlari, adabiyot muallimi bo'lgan otasidan, kutubxonachi onadan tarbiya olgan Bonu yoshligidan ko'chada o'ynab- quv nab o'sgan tengdoshlaridan farqli o'laroq, xontaxtada tirsak sanchib, Allohning kalomini va hadisi sharifni tinglab, goho Xo'jamnazar Huvaydo g'azallarini o'qib yodlab ularning sehri - jozibasi bilan ulg'ayadi. Hayotining mazmuni mutolaaga aylanadi. Ammo bobosining vafoti unga ilk zarba bo'ldi... Yillar o'tdi u talabalar safiga qo'shildi. Olmos bilan tanishdi. Olmosning she'riyatga ixlosmandligi ularni yaqinlashtirdi. Orada ko'rinmas

rishtalar bog'landi. Bu rishtalar muhabbatga aylandi. Ne ajabki bu orada Bonu taqdirning

ikkinchi zarbasiga uchradi. Jonidan ortiq ko'rgani otasidan judo bo'ldi. Dard kelsa qo'sha – qo'sha keladi deganlaridek, tanasini oq dog'lar o'rab oldi. Bu orada Olmos boshqa qizga uylandi. Hayot Bonuga ko'plab zarbalar yubordi. Lekin Bonu hayot zabralari bilan birma -bir kurashga o'zida kuch topdi. Asarni o'qib o'ylanib qolasan. Oyning o'n beshi qorong'u bo'lsa o'n beshi yorug' bo'ladi, deyishadi. Lekin qani o'sha Bonuga atalgan yorug'lik?! Nega Olmos uning sof muhabbatini oyoqosti qildi, nega Bonuning hayotini o'yin qildi?! (Men ham Bonuga qo'shilib unga ishonibmana. Uni baxtli qiladi deb o'ylabmana. Buni chin dildan xohlabmana! Ha yigit, yigit, ahvolingizni ko'ring! Nafs nimalar qilmadiya sizni?!) Akasi Mirxond nega uni shuncha azoblarga tashlab qo'ydi? Barchasini chetdan jim kuzatdi? Axir, aka otadan keyingi otaku?! Yusuf esa u o'z muhabatiga yomon yo'llar bilan erishmoqchi bo'ldi. Agar buni muhabbat deb atash mumkin bo'lsa. Uni deb Bonu qancha malomatlarga qoldi. Asardagi eng salbiy obrazlardan biri - Dilbar. Uning uchun ayollik sha'nining ikki chaqalik qiymati yo'q. Suvrati inson siyrati shayton. O'zining qilmishi yetmaganidek Bonuni ham nopok yo'llarga boshlamoqchi bo'ldi. Yo'q, Hayotda yaxshi insonlar ko'p, juda ko'p! Shunday insonlardan biri Shoiri opa. Uni qanday ta'riflashni bilmayapman. U farishtaning o'zi. Hamma Bonudan yuz burib ketganda unga suyanch bo'ldi. Qotgan non yeb bo'lsaham farzandlariga halol luqma yedirdi. U tufayli Bonu o'zida yashashga kuch topdi. "Huvaydo bobo " Bonuning eng qiyin pallalarida yonida bo'ldi, Bonu orqali o'z bobosini va Huvaydoni qayta topgandek bo'ldi. O'g'itlari sabab yana yashashga ishtiyoq topdi o'zida. Bonu timsolida ayol matonati, ayol jasorati, ayol muhabbati, ayol sha'ni, ayol vafosi, ayol sabri aks etgan. Shoiri opa, Huvaydo bobo, Bobur, Alisher, Makar, Larisa obrazlari orqali hayotda inson qadrini anglaydigan, dardini his qiladigan, qalbini tushunadigan odamlarga tayanch bo'la oladigan insonlar tasvirlangan. Jontemir, Marina Dilbar, Botir, Muhiddin obrazlari orqali chet elga ishlash uchun borgan ammo, ayshishrat qilib, bir bora beriladigan umrni behuda sarflayotgan insonlarni ko'rish mumkin. Asarda ko'plab ijtimoiy muammolar ham ko'tarib chiqilgan. Bonu ishlagan maktabning ahvoli, direktor va o'qituvchilarning yangiliklarni qabul qila olmasliklari, sen menga tegma, men senga tegmayman deb yashashi, ta'limga e'tibor bermasliklari kabi. "Tanangda og'riq his etsang, demakki sen tirik jonsan, O'zgalar og'rig'in sezsang demakki, sen insonsan, insonsan!" Shu parcha orqali xuddiki Bonuning butun hayotini ko'rsatib berilgandek. U o'zi musofir yurtda bo'laturib Shoiri opaga yordam berdi, Ruxsoraga ko'maklashdi, oilasini moddiy jihatdan ta'minladi. Olmosga beminnat yordam berdi, Lora va Larani hayotini saqlab qoldi... Ehhe bunday misollar keltirish mumkin.

Asarda ko'plab ibratli fikrlar, Huvaydo g'azallaridan parchalar keltirilgan:

1. Ona baribir onada farzandim deydi. Hamma sendan yuz o'girganda ham yoningda mung'ayibgina u qoladi.
2. Naylayki odamizod o'zidan uyalishi, or qilishi, hatto nafratlanishi mumkin ekan. Biroq tashlab ketolmas ekan.
3. Odamzod bolasi ko'zlari ko'rgan narsanigina mavjud deb o'ylaydi.
4. Eshitar -tinglamas, ko'rar- anglamas.
5. Umuman olganda g'aflat odamzodning baxti
6. Odamlar bir tomchi ko'z yoshingga arzimaydi. Arziydigani seni yig'latmaydi.
7. Odamzod o'zi boshidan kechirmaguncha, devorga boshi urilmaguncha ajdodlar xatosini takrorlab boraveradilar.
8. O'qiganing, uqqaning emas tanangdan o'tkazganing falsafadir.
9. Har kim o'z manziliga o'zi tanlagan yo'ldan boradi.
10. Asardan ko'plab xulosalar chiqarish mumkin ekan. Inson har qanday vaziyatda ham o'zligini yo'qotmasligi, hayot bilan kurashishi kerak.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iqbol Mirzo. Ko‘zlaringga termulsaydim. 1-jild. T., “Sharq”, 2020.
2. Iqbol Mirzo. Ko‘nglingda nima bor, bilmayman. 2-jild. T., “Sharq”, 2020.
3. Iqbol Mirzo. Bonu. 3-jild. T., “Sharq”, 2020.
4. Mirvaliyev, S. O‘zbek adiblari. Toshkent., “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2016.
5. <file:///C:/Users/User/Desktop/Iqbol%20Mirzo%20-%20Vikipediya.html>